XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 4-noyabr VII-27-76-11-160-K/26 Toshloq tumani

Tumanda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning ijrosini ta’minlash bo‘yicha 2026-yil III choragi davomida amalga oshirilgan ishlar, “edo.ijro.uz” tizimi orqali topshiriqlarning ijro samaradorligini yanada oshirish hamda ustuvor vazifalar haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyul kungi PF-117-son Farmoni talablariga muvofiq, “edo.ijro.uz” ijro intizomi idoralararo elektron tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari hamda majlis bayonlarida berilgan topshiriqlari o‘z vaqtida ijroga qaratilib, to‘liq va sifatli bajarilishi qat’iy nazoratga olingan.

“Edo.ijro.uz” tizimida nazoratga olingan topshiriqlar ijrosi “kunbay” tahlil qilinib borilgan. Tahlillar natijalari bo‘yicha, ijro intizomini ta’minlashda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, ularning sabablari aniqlanib, ularni bartaraf etish choralari ko‘rilgan. Topshiriqlarni o‘z muddatlarida bajarilishini ta’minlash maqsadida har oyning 25-sanasida “edo.ijro.uz” tizimida ijro muddati kelgusi oyda keladigan topshiriqlar ro‘yxati shakllantirilib, tuman hokimining mas’ul o‘rinbosarlari, guruh va bo‘lim boshliqlariga kiritilib, mas’ul ijrochilar kesimida kalendar jadval va “yo‘l xaritalari” tasdiqlanib, ijro intizomi bo‘yicha mutaxassis tomonidan har oyda topshiriqlar ijro holati tanqidiy tahlil qilingan holda ma’lumotnoma va jadvallar tayyorlanib, tuman hokimiga kiritilgan. Bajarilmay qolgan hamda muddati kelgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlashda tuman bo‘lim va tashkilotlar hamda tuman hokimligi bilan muntazam ravishda muhokama qilib borilmoqda.

Tumandagi tashkilot va idoralar, tuman hokimligida ijro intizomini mustahkamlashda olib borilayotgan ishlarni tasdiqlangan maqsadli o‘rganishlarni tashkil etish reja jadvaliga asosan, 2026-yil III choragi davomida 5 ta bo‘lim va tashkilotlarda maqsadli o‘rganishlar o‘tkazilgan. Ushbu tizim orqali kelib tushgan topshiriqlarning ijro holati tuman hokimligida har haftaning dushanba kuni “Hokimlik soati” yig‘ilishida tuman hokimi, haftaning har juma kuni tuman hokimining birinchi o‘rinbosari rahbarligida tanqidiy-tahliliy muhokama qilinib borilmoqda. Tahlillarga ko‘ra, tuman hokimligiga 2026-yil III choragi davomida “edo.ijro.uz” tizimi orqali jami 3416 ta hujjatlarda 3024 ta topshiriqlar (7 ta qonun, 8 ta farmon, 68 ta qaror, 12 ta farmoyish va 49 ta bayon) kelib tushgan. O‘z navbatida, 2026-yil III choragi davomida 696 ta holatda “edo.ijro.uz” elektron tizimi orqali berilgan topshiriqlarning ijrosi kechikib bajarilgan.

Jumladan, moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosarida 194 ta, qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosarida 154 ta, tuman hokimining o‘rinbosari investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘ida 28 ta, qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosarida 40 ta, yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosarida 239 ta, tuman hokimining o‘rinbosari oila va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosarida 41 ta topshiriqlarni belgilangan muddatlardan kechikib bajargan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6166-sonli Farmonining ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi”gi qonunning 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tumanda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning ijrosini ta’minlash bo‘yicha 2026-yil III choragi davomida amalga oshirilgan ishlar, “Edo.ijro.uz” tizimi orqali topshiriqlarning ijro samaradorligini yanada oshirish hamda ustuvor vazifalar haqida tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.O‘lmasovning hisoboti qabul qilinsin.

2. Tumanda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning ijrosini ta’minlash bo‘yicha 2026-yil III choragi davomida amalga oshirilgan ishlar, “Edo.ijro.uz” tizimi orqali topshiriqlarning ijro samaradorligini yanada oshirish hamda ustuvor vazifalar haqidagi hisoboti qoniqarli deb topilsin.

3. Mazkur masala xalq deputatlari tuman Kengashining “Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi yig‘ilishida muhokama qilinib, tuman Kengashi sessiyasi kun tartibiga kiritish to‘g‘risidagi qarori asos uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari hamda majlis bayonlarida berilgan 696 ta topshiriqlar ijro muddatidan kechikib bajarilganligi;

mas’ul bo‘limlar tomonidan topshiriq ijrosi bo‘yicha asoslantirilgan ma’lumotlar tuman hokimligiga taqdim etilmaganligi sababli topshiriqlarning bajarilmay qolishiga sabab bo‘layotganligi alohida ko‘rsatib o‘tilsin.

5. Mas’ul bo‘lim rahbarlari zudlik bilan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish hamda topshiriqlar ijrosini to‘liq ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini kiritish va asoslantirilgan ma’lumotlarni tuman hokimligiga o‘z vaqtida taqdim etishi belgilansin;

topshiriqlar ijro muddatini sababsiz o‘tkazib yuborgan hamda belgilangan talablarni buzgan mas’ul shaxslarga nisbatan amaldagi qonunchilikka muvofiq tegishli intizomiy jazo choralari qo‘llanilishi haqida ogohlantirilsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosarlari I.O‘lmasov, U.Komilov, E.Madaminov, A.Boboraximov, I.Abduraxmonov va U.Marasulovalar kompleksga kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari hamda majlis bayonlarida berilgan topshiriqlar ijro muddatidan kechikib bajarilganlik sabablarini (har bir topshiriq bo‘yicha) chuqur o‘rganib, tahlil qilib, kechikib bajarish sabablari va omillarini aniqlasin.

Bunda, Adliya bo‘limi bilan hamkorlikda tuman hokimligi bosh mutaxassislari hamda kompleks tarkibiga kiruvchi bo‘lim va tashkilotlar rahbarlarining huquqiy ongi va shaxsiy mas’uliyatini yanada oshirish bo‘yicha o‘quv-seminarlari tashkil etib borish choralari ko‘rilsin.

7. Tuman hokimligi (I.O‘lmasov)ga:

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va bayonlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari, bayonlari va topshiriqlarida belgilangan vazifalarning ijrosini o‘z

muddatida ta’minlab borish, bunda sifatsiz, asoslanmagan, yuzaki va to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlarga alohida e’tibor qaratish;

tuman hokimligi apparatida, korxona va tashkilotlarda ijro intizomini mustahkamlash, mazkur yo‘nalishda yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklar hamda ularning kelib chiqish sabablarini zudlik bilan bartaraf etish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni belgilash, shuningdek, ijro intizomi talablarini buzgan rahbar va mas’ul xodimlarga nisbatan belgilangan tartibda intizomiy choralarni ko‘rish;

tumanda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari ijro etilishini tashkil etish borasidagi faoliyat samaradorligini yanada oshirilib, topshiriqlarni to‘liq bajarmagan, kechiktirib bajargan yoki umuman ijrosini ta’minlamagan rahbar va xodimlarga nisbatan qat’iy intizomiy javobgarlik choralarini qo‘llab, mansabdor shaxslarning ijro intizomini ta’minlashdagi mas’uliyatini yanada kuchaytirish;

ish yuritish va ijro intizomiga oid qonun hujjatlari ijrosi yuzasidan maqsadli o‘rganishlarni o‘tkazish ishlarini jadallashtirish va ularning samaradorligini yanada oshirish vazifasi yuklatilsin.

8. Tumanda edo.ijro.uz elektron hujjat almashinuvi tizimidan foydalanuvchi barcha korxona, tashkilotlar rahbarlari va tuman hokimligi xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlarining ijrosi ustidan samarali nazorat mexanizmlarini joriy qilish, ijro natijasi bo‘yicha aniq hisobdorlikni ta’minlash, shuningdek, barcha bo‘g‘inda ijro intizomiga qat’iy rioya etish bo‘yicha shaxsiy mas’uliyati va javobgarligini yanada oshirish choralarini ko‘rsin.

9. Tuman hokimligi O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari talablarini o‘z vaqtida, aniq va to‘liq hajmda bajarilishini ta’minlash ishlarini tashkil qilish maqsadida har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalarida hisobot berib borsin.

10. Mazkur qaror Farg‘ona viloyati hokimligiga yuborilsin.

11. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

12. Mazkur qaror e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi

SALIYEV TURSUNBOY NURMATOVICH